



TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ  
XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH  
MUHANDISLARI INSTITUTI



**FAN:** YER RESURSLARINI BOSHQARISH

MAVZU

**01**

**BJSHQARUV TO'GRISIDA TUSHUNCHA,  
BOSHQARISH TAMOYILLARI VA  
FUNKTSIYALARI**



**RO'ZIBOYEV S.B.**

.

**Yer resurslarini boshqarish  
kafedrası dotsenti, PhD**



## Reja:

- 1. Yer resurslari va yerdan foydalanish**
- 2. Yer resurslarini boshqarish tushunchasi va uning mazmuni**
- 3. Yer resurslarini boshqarishning maqsad va vazifalari**
- 4. Yer resurslarini boshqarish yo'nalishlari**

Boshqarish – bu ma’lum bir ijtimoiy ahamiyatli natijaga erishish maqsadlarida boshqarish ob’yektlari va sub’yektlarini maqsadga yo’naltirilgan o‘zaro ta’sirini yaratish jarayonidir. Bu boshqarish amaliyotini boshqarishning har bir tizimini (oddiy mehnatchilar tashkilotidan yaxlit jamiyatga qadar) ijtimoiy vazifasini aniq tushunib yetishga yo’naltiradi, boshqarish tizimining barcha bosqichlarida ushbu turdagi faoliyat bilan shug‘ullanayotgan barchaning mehnat sifatini ob’yektiv tarzda baholash uchun imkoniyatlarni oshiradi. Boshqarishning ob’yekti ham, sub’yekti ham bo‘lgan insonlar ijtimoiy - boshqarish voqealigining asosiy egalari bo‘ladilar.


Boshqarish tizimida uning tamoyillari alohida ajralib turadi. ***Boshqarish tamoyillari***- ijtimoiy rivojlanishning ma'lum bir shart sharoitlarida boshqarishga qo'yiladigan talablarni yorituvchi umumiy qoidalardir. Boshqarishning asosiy tamoyillariga demokratik markazlashganlik, boshqarishning ilmiyligi, boshqarishga tizimli yondoshuv, moddiy va ma'naviy manfaatdorlik kiradi.

Boshqarish jarayonida boshqarish funksiyasi ham muhimdir. Odatda ***boshqarish funksiyasi*** – bu boshqarish ob'yecktiga, boshqariladigan tizimga boshqarish ta'sirining mazmunini (yo'naltirilganlikni) yoritadi. Funktsiyalar kombinatsiyasi boshqarish tizimining markazida yotadi

# YER KODEKSI

Yer umummilliy boylikdir, O'zbekiston Respublikasi xalqi hayoti, faoliyati va faravonligining asosi sifatida undan oqilona foydalanish zarur va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

*O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi, 1-modda*



# Yer resurslari

**Yer** tabiiy resurslar ichida o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. U mamlakatimiz aholisining turmush farovonligini ta`minlaydi, respublikamizning iqtisodiy salohiyati uchun moddiy negiz yaratadi.

**Yer resurslari** – jamiyat va xalq xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalanish mumkin bo'lgan yerlardir. Yer resurslari tarkibiga foydalanib kelinayotgan va istiqbolda foydalanish mumkin bo'lgan yerlar kiradi.


# Tabiiy resurslar

**Tabiiy resurslar** – tabiiy boyliklar, jamiyatning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida jamiyatda foydalaniladigan hamda insoniyatning yashashi uchun zarur bo'lgan, uni o'rab turgan tabiiy muhitning barcha tabiat komponentlari, energiya manbalari.

Tabiiy resurslarga yer, suv, tuproq, quyosh energiyasi, yerning ichki issiqligi, mineral boyliklar, o'simlik va hayvonot dunyosi kiradi.



# Tabiatdan foydalanish



# Yerdan foydalanish

Ishlab chiqarish jarayoni va insoniyatning barqarorligi yer va undan foydalanish bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ham yerni asrash va undan oqilona foydalanish insoniyat oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

**Yerdan foydalanish** – bu ijtimoiy-iqtisodiy jarayon bo'lib, jamiyat va tabiat komplekslari rivojlanish qonuniyatlari bilan bog'liq yer resurslaridan foydalanish jarayonidir.

Yerdan foydalanish jamiyatda yer resurslaridan foydalanishning uzluksizligi, ko'p maqsadliligi, davriyligi kabi usullar majmuasi hamda ushbu jarayonni boshqarishni o'z ichiga oladi.

# Yerdan foydalanish

Yerning iqtisodiyotdagi  
funktsiyalari

```
graph TD; A([Yerning iqtisodiyotdagi funktsiyalari]) --> B[Yer asosiy ishlab chiqarish vositasi]; A --> C[Yer ishlab chiqarish ob'yektlari uchun asos (baza)];
```

Yer asosiy ishlab chiqarish  
vositasi

Yer ishlab chiqarish  
ob'yektlari uchun asos  
(baza)

# Yerdan foydalanish



# Yerning xususiyatlari


**Yer boshqa ishlab chiqarish vositalaridan farq qiluvchi o'ziga xos xususiyatlarga egadir:**

- 1. Yer tabiat mahsuli hisoblanadi, shu bilan bir qatorda ishlab chiqarish vositalari singari inson mehnatining natijasidir.**
- 2. Ishlab chiqarish jarayonida yer amaliy jihatdan o'z joyini o'zgartirmaydi, uni joylashgan o'rni o'zgarmasdan qoladi.**
- 3. Ishlab chiqarish jarayonida barcha ishlab chiqarish vositalarining jismoniy va ma'naviy eskirishi yuz beradi. Yer asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida undan to'g'ri foydalanishda aksincha yaxshilanadi-unumdorligi oshadi.**
- 4. Tabiiy-tarixiy jarayon natijasi sifatida yerning ustki qismi yer sharining quruqlik qismi bilan chegaralangan va miqdoriy o'zgarmasdir.**

# Yerning xususiyatlari

5. Yer – barcha tabiiy resurslar va iqtisodiy muhit elementlarini, inson bilan birgalikda, yer yuzidagi barcha tirik mavjudodlarni saqlash asosidir.
6. Qishloq xo'jaligida yer asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida boshqa tabiiy olimlar (yorug'lik, suv, havo, issiqlik) majmuasi bilan birgalikda foydalanadi.
7. Yer barcha ishlab chiqarish vositalari va mehnat taqsimoti uchun manbaa yaratadi, shu bilan bir vaqtda yerlardan oqilona foydalanishni ko'zda tutadi.
8. Yer qishloq xo'jaligida faqat mavsumiy foydalaniladi, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida esa yil davomida foydalanish xususiyatiga ega.

# Yerdan foydalanish tizimi



# Boshqaruv tushunchasi

“Boshqarish (administration, control, management va boshq.) – keng ma`noda–mavjud bo'lishini ushlab turish yoki uni holatini o'zgartirish maqsadida boshqarish ob'yektiga maqsadli yo'naltirilgan ta'sir vositasida tizimni bir holatdan boshqasiga o'tkazishdir”

Boshqarish deganda, boshqariladigan tizimlarga ta'sir jarayoni tushuniladi.

«Boshqarish» tushunchasi «jarayon» va «tizimlar» tushunchalari bilan ham uzviy bog'liqdir. Jarayon (lotinchadan processus) harakatni bildiradi va “nimanidir rivojlanishida holatni, voqeilikni ketma-ket o'zgarishi, qandaydir natijaga erishish uchun ketma-ket harakatlar majmuasi” sifatida ta'riflanadi.



# Yer resurslarini boshqarish

Yer resurslarini boshqarish jamiyatning barcha jabhalaridagi munosabatlarni, jumladan ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik va boshqa turdagi boshqaruv turlarini qamrab oladi. Shuning uchun yer resurslarini boshqarish murakkab tashkiliy, boshqaruv tizimi hisoblanadi.

**Yer resurslarini boshqarish** - bu davlat va jamiyatning yer resurslaridan foydalanishda tizimlashgan, asoslangan va aniq maqsadga yo'naltirilgan harakatlar yig'indisidir.

Yer resurslarini boshqarish tizimining asoslarini boshqarish ob'yekti, sub'yekti, predmeti, maqsadi, vazifalari va funksiyalari tashkil etadi.

# Yer resurslarini boshqarish

**Yer resurslarini boshqarishning maqsadi** - yerdan foydalanish bilan bog'liq jamiyat ehtiyojini qondirishga va iqtisodiyot rivojlanishiga qaratilgan yer munosabatlari tizimini shakllantirish, yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlashdan iboratdir.

# Yer resurslarini boshqarishning asosiy vazifalari



**yerdan ilmiy asoslangan tarzda, oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishni tashkil etish**



**yer munosabatlarini tartibga solish**



**yer tuzish, yer kadastri va yer monitoringini tashkil etish**



**tuproq unumdorligini tiklash va oshirish**



**yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarini ta`minlash, ularning yer resurslaridan samarali foydalanishlari uchun sharoitlar yaratish**



**yerdan foydalanishda qonuniylikni ta`minlash**

# Yer resurslarini boshqarish

**Yer resurslarini boshqarish ob'yekti** - yer uchastkalarining huquqiy holati, toifasi, foydalanish maqsadi va xarakteridan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasining butun yer fondi hisoblanadi



**Ob'yekti**

**Yer fondi**

**Yer toifalari**

**Yer turlari**

**Hudud**

# O'zbekiston Respublikasining yer fondi

| t/r | Yer fondining toifalari   | Umumiy yer maydoni, ming, ga |            |
|-----|---|------------------------------|------------|
|     |   | jami                         | % hisobida |
| 1   | Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar  | 20236,3                      | 45,08      |
| 2   | Aholi punktlari yerlari   | 221,4                        | 0,49       |
| 3   | Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar                | 866,3                        | 1,93       |
| 4   | Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekreatsion maqsadlarga mo'ljallangan yerlar | 710,4                        | 1,58       |
| 5   | Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar   | 14,5                         | 0,03       |
| 6   | O'rmon fondi yerlari  | 11199,5                      | 24,95      |
| 7   | Suv fondi yerlari   | 836,9                        | 1,87       |
| 8   | Zaxira yerlar   | 10807,1                      | 24,07      |
|     | Jami yerlar:  | 44892,4                      | 100,0      |

# Yer resurslarini boshqarish

## SUB'YEKTI

**Yer resurslarini boshqarish sub'yekti** – yer munosabatlarini tartibga solish va yer resurslarini boshqarish bo'yicha maxsus vakolatli organlar, shuningdek qonunda belgilangan tartibda yer uchastkasiga ega bo'lgan yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va mulkdorlar, yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.



# Yer resurslarini boshqarish yo'nalishlari

- yer resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha davlatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ekologik vazifalarini bajarilishini ta'minlash.

Siyosiy



- qonun hujjatlarida belgilangan huquqiy me'yorlar asosida yerlardan belgilangan maqsadda oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash.

Huquqiy



- fan–texnika taraqqiyoti erishgan yutuqlarni hisobga olish bilan birga yer resurslarini boshqarish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

Ilmiy



- yer resurslaridan samarali foydalanish shartlarini belgilash va ta'minlash.

Iqtisodiy



- iqtisodiy, ijtimoiy rag'batlar va yer resurslarini muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanish bo'yicha belgilangan tadbirlarni amalga oshirish

Tashkiliy-  
texnologik



# Bilimni nazorat qilish uchun savollar

- 1. Yer resurslariga ta'rif bering?*
- 2. Yerdan foydalanish deganda nimani tushunasiz?*
- 3. Yerdan foydalanish tizimi nima?*
- 4. Qanday tizimlar moddiy tizimga kiradi?*
- 5. Qanday tizimlar abstrakt tizim deb ataladi?*
- 6. Yer resurslarini boshqarishning maqsadi nima?*
- 7. Yer resurslarini boshqarishning qanday asosiy vazifalari bor?*
- 8. Yer resurslarini boshqarishning qanday yo'nalishlari mavjud?*



# Adabiyotlar:

1. Rahmonov Q.R., Narbayev Sh.K., Muqimov Z.M. Yer resurslarini boshqarish. O'quv qo'llanma. T.: TIQXMMI, 2019. – 154 b.
2. Варламов А.А., Гальченко С.А. Управление земельными ресурсами. Учебное пособие. М.: ГУЗ, 2005. – 240 с.
3. Чертовичкий А.С., Базаров А.К. Управление землепользованием. Учебное пособие. Т.: ТИИМ, 2010. – 327 с.
4. Selim Kapor, Hari Eswaran, Winfried Blum. Sustainable Land Management. Springer-Verlag Berlin and Heidelberg GmbH & Co. KG. Germany 2016.
5. Babajonov A.R., Rahmonov Q.R, G'ofirov A.J. Yer kadastrı. T.: TIMI, 2008 – 220 b.
6. Avezbaev S., Volkov S.N. Yer tuzishni loyihalash. - T.: “Faylasuflar milliy jamiyati”, 2007. – 470 b.
7. O'zbekiston Respublikasi “Yer kodeksi”, T.:“Adolat”, 2015 y.
8. Nigmatov A. Yer huquqi. – T.: “Islom Universiteti”, 2001. – 191 b.
9. O'zbekiston Respublikasi yer resurslarining holati to'grisida Milliy hisobot. T.:“Yergeodezkadastr” davlat qo'mitasi, 2019. – 85 b.
10. <https://moodle.tiame.uz/course/index.php?categoryid=178>